

## O'SMIRLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA UNING SHAXS MA'NAVIY ONGIGA TA'SIRI

**Valiyeva Adiba Alisherovna**

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari va shaxs ma'naviy ongining shakllanib borayotgan davrida o'mirlik davrining inqirozlari hamda o'smir shaxsning shakllanib, kamolotga erishish yo'llari va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning ta'sirli masalalari, olimlar tomonidan o'smirlarga berilgan ta'riflar va o'smirlar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar berilgan va tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *O'smirlik davri, psixik rivojlanish, emotsional o'zgarishlari, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, shaxsiy identifikatsiya, o'smirlik inqirozi, psixologik xususiyatlar, biologik va ijtimoiy omillar.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются психологические особенности подросткового возраста, современные кризисы подросткового периода, а также пути формирования личности подростка и достижения им зрелости. Освещаются важные вопросы влияния биологических и социальных факторов на развитие подростка, приводятся определения подросткового возраста, данные учёными, а также рекомендации по работе с подростками.*

**Ключевые слова:** *Подростковый возраст, психическое развитие, эмоциональные изменения, когнитивное развитие, социальная адаптация, личностная идентичность, подростковый кризис, психологические особенности, биологические и социальные факторы.*

**Abstract:** *This article examines the psychological characteristics of adolescence, current crises emerging during this developmental stage, as well as the ways of personality formation and achieving maturity in adolescents. It highlights the significant influence of biological and social factors on adolescent development, presents definitions of adolescence provided by scholars, and offers recommendations for working with adolescents.*

**Keywords:** *Adolescence, mental development, emotional changes, cognitive development, social adaptation, personal identity, adolescent crisis, psychological characteristics, biological and social factors.*

O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi kengroq. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. "Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas" - ayni shu

ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu davrda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Bo'yga o'sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar 5-7 sm o'ssalar, o'g'il bolalar 5-10 sm o'sadilar. Bo'yining o'sishi asosan naysimon suyaklarning uzunlashishi va umurtqa pog'onasining kengayishi hisobiga yuz beradi. Bunda ular kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qiladilar biroq o'zlarining bu qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaydilar. Ularda kattaroq yoshli kishilarga yaqin bo'lish yoki o'zini qo'llab quvvatlovchi tengdoshlar guruhiga bog'lanib qolish holatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ikkinchi bosqichda o'smir endi o'zining yosh bola deb hisoblamasligiga shubha qilmaydi va o'zligini anglay boshlaydi. O'z shaxsini ulug'lashga, o'ziga xos harakatlar qilishga intiladi. O'smirlarning o'z shaxsi haqidagi fikrlari ko'proq atrofdagilarning munosabatiga bog'liq bo'ladi. "Oltinchi sinf muammolari"ga bag'ishlangan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu yoshdagi o'quvchilarning to'rtinchi sinfdagiga nisbatan: 6 marta ko'proq qaysarlik qilishlari, 10 marta ko'proq o'qituvchilarga qarshilik ko'rsatishlari, 7 marta ko'proq boshqalar irodasiga to'sqinlik qilishlari, 9 marta ko'proq boshqalar kamchiliklariga e'tibor berishlari, 5 marta ko'proq faqat o'z xohish-istaklariga bo'ysunishlari va nihoyat 42 marta ko'proq o'z xatti-xarakatlari motivlariga ega bo'lmasliklari aniqlangan (Krakovskiy A.P. 1970). Bu ko'rsatkichlar oltinchi sinf o'quvchilarida o'zini namoyon qilish va mustaqillikka intilish intonatsiyasi kuchli ekanligidan dalolat beradi. O'smirlik davrining o'ziga xos ko'rsatkichlari oltinchi sinf o'quvchilarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu davrda bolalarda mustaqillikka intilish intonatsiyasi kuchayadi. Shuningdek, o'smirlarga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar ham xosdir. Bu yoshdagi bolalar chekishga hamda spirtli ichimliklar ichishga qiziqib qolishlari mumkin. O'smir o'zini katta odamdek his qila boshlaydi, biroq, chekuvchi, ichuvchi kabi "yangi rollar"da o'zini noqulay sezadi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. O'zi haqidagi mavjud fikrlarining real hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos kelmasligi uni asabiylashtiradi, ko'p noqulaylik va tashvishli holatlar yuzaga keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvlar paydo qilishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, ayniqsa, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmaydilar. Bu holat ularni ichki asabiylashishga va o'smirlik davri inqiroziga olib keladi. Inqiroz davrida tushkunlik, yolg'izlikka intilish, o'jarlik, qaysarlik, agressivlik kabi holatlar namoyon bo'ladi. Biroq bu inqiroz o'smirning ma'naviy o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Endi o'smirlar o'yin o'rniga jiddiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. Maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarining rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'qish o'smirlar hayotida katta o'rinni egallaydi, lekin ular uchun mashg'ulotlarning mustaqil shakllari ko'proq ma'qul keladi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi, qiziqishlarining ortishi va o'qituvchining o'qitish mahoratiga bevosita bog'liq. O'qish faoliyati asosida o'smirning o'z-o'zini anglash darajasi kengayadi, boshqa odamlar va atrof-olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Ruhiy rivojlanishning yangi qadam sifatida o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar o'smirning hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bog'liq holda bilish jarayonlarini rivojlantiradi. Aynan o'smirlik davridan boshlab bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Bilim o'smirlarga alohida quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi. Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq ham og'zaki, ham yozma shaklda-mavjud bo'lishning eng kuchli vositasi hisoblanadi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga qulay sharoit yaratiladi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muomala qilish, bilish olish va ijodiy faoliyatga kirishga ehtiyoj hamda intilishi natijasidir. O'smirlik davrida nutqning rivojlanishi, bir tomondan, so'z boyligining oshishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan, tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash bilan bog'liqdir. Bu davrda o'smir til yordamida atrof-borliqni aks ettiradi, balki o'z dunyoqarashini ham shakllantira boshlaydi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, inson nutq bilish jarayonlarini belgilab berishini tushuna boshlaydi. O'smirni ko'pincha muomalada so'zlarni ishlatish qoidalari qiziqtiradi – «Qanday kilib to'g'ri yozish kerak?» «Qanday kilib yaxshiroq aytish mumkin?» , «Nima deyish kerak?», kabi savollar uning diqqat markazida bo'ladi. O'smirlar maktabdagi o'qituvchilar, kattalar hamda ota-onalar nutqidagi kamchiliklariga, shuningdek, kitob, gazeta, radio va televideniye diktoralari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning, bir tomondan, o'z nutqini nazorat etishga o'rgatsa, ikkinchi tomondan, kattalar ham nutq qoidalarini buzishlari mumkinligini anglashi oqibatida undagi mavjud xatoliklarning barham topishiga olib keladi. O'smir so'zlarning kelib chiqish tarixiga, ularning aniq mazmuni va mohiyatiga juda qiziqadi. U endi o'z nutqida yosh bola singari emas, balki katta odamlardek so'zlarni tanlab ishlatishga harakat qiladi. Nutq madaniyatini egallash borasida o'smir uchun o'qituvchi, albatta, namuna bo'lishi shart. Aynan maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishini hisoblanadi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi o'smir nutqining rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratadi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muloqotga, bilish olishga va ijodiy faoliyatga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanadi.

O'quvchi o'zi yozgan fikrni qayta-qayta o'qib, o'z nutqini tahlil qilishga o'rganadi. Bu esa o'quvchi yozgan ishini bir necha marta qayta ko'rib chiqishga, o'zgartirishga, to'ldirishga va qaytadan ishlab chiqishga majbur qiladi. Ma'naviy ong ham shaxs kamolotiga bog'liq bo'lib tur xil o'zgarishlarni butunlay qabul qila olmaydi va natijada esa onging ostida turli o'smirlik davriga mos xulq atvor shakllanib boraveradi, shuni aniq aytish lozimki ma'naviy ong bugun yoki ertaga shakllanmaydi balki ma'lum vaqt mobaynida rivojlanib sekin asta inson shaxsiyatiga ta'sir etib shakllanadi. Xulosa qilib aytganda, o'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch - uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlarni o'smirning psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish, uning shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish orqali asta-sekin yo'qotish mumkin. Ota-onalarning o'smirga shu erkinlikni bermasligi yoki o'smirning shunday deb bilishi natijasida, ular ota-onaga qarshi pozitsiyada bo'ladilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ana shu muloqot va munosabat asosida o'smirlarda g'urur hissi shakllana boshlaydi. Albatta, g'urur me'yori va qoidalari kattalardan o'rganiladi, lekin o'z g'ururini qanday himoya qilishi o'smirlarning alohida nazoratida bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tillashayxova X.A., Nazirova L.V., Raximova I.G. "Vozrastnaya psixologiya" - Uchebnoe posobie T. TGPU. 2020.
2. Abdurahmonova Z.A. "Yosh va pedagogik psixologiya" (barcha sirtqi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun) (- T.: TDPU, 2023, 6 b.t.) Uslubiy qo'llanma.
3. Dusmuxamedova Sh.A, Tillashayxova X.A, Baykunosova G.Yu, Ziyavitdinova G.Z. Umumiy psixologiya (yosh davrlari pedagogik psixologiya) 2021 yil.
4. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma T.: TDPU, 2006.